

OG’IR METALL TUZLARINI ORGANIZMGA TA’SIRI.

Eraliyeva G.A.
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Dunyo miqyosida atrof-muhitning og’ir metallar bilan ifloslanishining dolzarbligi birinchi navbatda inson organizmiga bunday zararli tuzlarni keng doirada qabul qilinib salomatligi uchun katta ziyon yetkazayotgani bilan izohlanadi. Og’ir metal tuzlari organizmning barcha sistemasiga ta’sir qiladi va ular toksik, allergik, kanserogen, gonadatrop xususiyatli bo’ladi.

Kalit so’zlar. O’gir metallar, og’ir metallarni tarqalish manbalari, zararlanish oqibatlari, metall ionlarining toksikligi, sanoat va organik chiqindilar.

Abstract: The relevance of environmental pollution with heavy metals on a global scale is primarily explained by the fact that such harmful salts are widely accepted by the human body and cause great harm to health. Heavy metal salts affect all systems of the body and are toxic, allergic, carcinogenic, and gonadotropic.

Key words: Heavy metals, sources of heavy metal distribution, consequences of damage, toxicity of metal ions, industrial and organic waste.

Аннотация: Актуальность загрязнения окружающей среды тяжелыми металлами в глобальном масштабе объясняется, прежде всего, тем, что такие вредные соли широко усваиваются организмом человека и наносят огромный вред здоровью. Соли тяжелых металлов поражают все системы организма и обладают токсичным, аллергическим, канцерогенным и гонадотропным действием.

Ключевые слова. Тяжелые металлы, источники распространения тяжелых металлов, последствия повреждений, токсичность ионов металлов, промышленные и органические отходы.

Atrof-muhit ifloslanishini o’rganishga doir ilmiy ishlar shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda tabiatimizda D.I.Mendeleyev davriy jadvalidagi 40 dan ziyod, atom massasi esa 50 dan yuqori bo’lgan og’ir metall tuzlarini borligi va ular inson organizmiga o’z ta’sirini ko’rsatayotganligi aniqlandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo’yicha dasturi (UNEP) hisobotida eng xavfli og’ir metallar deb 10 ta element qayd etilgan. Bular – Cu, Sn, V, Cr, Mo, Co, Ni, Sb, As, Se kabilardir [1].

Inson salomatligi uchun xavfliligi bo’yicha og’ir metallar quyidagi sinflarga bo’linadi:

1-sinf (eng xavfli): kadmiy, simob, selen, qo’rg’oshin, rux;

2- sinf: kobalt, nikel, mis, molibden, surma, xrom;

3-sinf: bariy, vanadiy, volfram, marganets, stronsiy [1]

Ko’pgina og’ir metallar tabiiy ravishda paydo bo’ladi, ammo bir nechtasi antropogen manbalardan olinadi. Og’ir metall tarkibli sanoat oqava suvlari gidrosferaning og’ir metallar bilan ifloslanishining asosiy manbai hisoblanadi. Ularning tarqalishining yana bir yo’li drenaj (oqova) suvlarining suv havzalariga quyilishidir [2, 4].

Og’ir metallar suv, tuproq va havo kabi atrof-muhitning turli elementlari bilan aralshib, oziq-ovqat zanjiri orqali odamlar va boshqa tirik organizmlarga o’zini ta’sirini ko’rsatadi.

Ba’zi og’ir metallarning tarqalish manbalari.

1-jadval.

Metall	Asosiy manbalar
Mishyak	Sanoat changlari, ifloslangan suvdan tibbiyotda foydalanish
Kadmiy	Sanoat changi, tutuni, suv va oziq-ovqat
Xrom	Sanoat changi, tutuni va ifloslangan oziq-ovqat
Marganes	Sanoat changi, tutuni
Qo’rg’oshin	Sanoat changi, tutuni va ifloslangan oziq-ovqat
Nikel	Sanoat changlari, aerozollar
Qalay	Dori vositalari, sanoat changi
Simob	Sanoat changi va tutuni, ifloslangan suv va oziq-ovqat

(Manju Mahurpawar bo’yicha, 2015)

Og’ir metallar inson tanasining ayrim sistemalarida toksiklikni keltirib chiqaradi. Masalan: nefrotoksiklik, neyrotoksiklik, gematotoksiklik, teri toksikligi va qon-tomir toksikligi. Jumladan qo’rg’oshin bilan zaharlanish bolalarda intellektual anormalliklarni, simob toksikligi Minamata kasalligini, kadmiy bilan zaharlanish esa Itai-itai kasalligini keltirib chiqaradi. Birgina misol qilib kadmiyning toksikligiga e’tibor qaratsak, kadmiy birikmalari kuchli zaharli ta’sirga egaligi uchun ham keyingi vaqtlarda tibbiyotda qo’llanilmaydi. Kadmiy saqllovchi bo’yoqlar zaharli bo’lgani uchun ko’plab davlatlarda bolalar o’yinchoqlarini yasashda undan foydalanish taqiqlab qo’yilgan. Inson organizmi uchun 0,03 g miqdordagi kadmiy sulfat zaharlanishga olib keladi [3, 6].

Organizmga kirgan kadmiy oqsillar bilan birikadi. Qondagi fermentlarning sulfidril guruhlari bilan birikib, ularning normal funksiyasini ishdan chiqaradi. Agar inson organizmi kadmiyning birikmalari bilan zaharlansa qonli ich ketish kuzatiladi, jigar va yurakda yog’ moddalari to’planadi, buyraklar yallig’lanadi. Organizmga tushgan kadmiy juda uzoq vaqt oshqozon hamda peshob yo’llaridan tashqariga chiqariladi. Bundan tashqari qo’rg’oshin elementi birikmalari ham issiqqonli organizmlarga kuchli toksik ta’sir o’tkazadi. Bu moddadan harbiy sanoat va uy ro’zg’or buyumlari tayyorlashda foydalaniladi. Inson organizmi qo’rg’oshin bilan zaharlansa o’zini juda quvvatsiz his qiladi, og’izda Shirin metal ta’mini sezadi, va qorin sohasida qisqa vaqtli og’riq paydo bo’ladi. Bemorda yurak urishi sekinlashadi, qon bosimi ko’tariladi, boshi qattiq og’riydi. Surunkali ravishda qo’rg’oshin bilan zaharlanishda teri oq kulsimon rangga bo’yaladi [4, 5].

Milkda zangori kulrangli dog’lar paydo bo’ladi, peshobda esa qo’rg’oshin miqdori ko’tariladi. Organizm qo’rg’oshin va uning birikmalari bilan zaharlanganda uning asosiy qismi buyrak va ichaklar orqali tashqariga chiqaziladi. Eng ko’p miqdori jigar, suyak va nerv to’qimalarida to’planadi. Qo’rg’oshin qonga so’rilgach 90% qismi ferment, aminokislotalar va oqsil moddalardagi sulfidril va boshqa funksional guruhlar bilan birikib, markaziy asab tizimi faoliyatini buzadi.

Xulosa. Atrof-muhitning turli omillar ta’sirida og’ir metallar bilan ifloslanishi, ularni yillar davomida tuproqda to’planib o’zida radioaktivlikni hosil qilishi natijada tiriklik biozanjiri bo’ylab inson organizmiga tushishi va organizm uchun katta xavf tug’dirishi bu dunyo miqyosidagi eng muhim masala bo’lib qolmoqda. Toksik ta’sir kimyoviy moddalarning organizmga kirib borishi natijasida yuzaga keladigan og’ir holat. Toksinlar farenks ya’ni nafas olish yo’llari, epidermisning yuqori qatlami yoki shilliq qavatlar orqali kirishi mumkin. Bu

holat ozuqa mahsulotlari, dori-darmonlar, tozalash vositalari kosmetika preparatlari, kimyoviy qurollar yoki fabrikada kimyoviy tarkibdagi bug'larni qabul qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Kimyoviy zaharlanish nafaqat moddaning dozasiga, balki individual xarakter va yoshga ham bog'liqdir. Shuning uchun bunday metallar tarqalgan hududlarni aniqlash, ulardan zaharlanishga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish profilaktikaning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. Toksik moddalar ta'sirini nazorat qilmaslik kelajakda salbiy oqibatlarga olib kelishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Шилова Н.А. (2014). Влияние тяжелых металлов на представителей пресноводного фито- и зоопланктона в условиях засоления. автореф. дис. канд. Саратов. 16-20
2. Manju Mahurpawar. (2015). Effects of heavy metals on human health. International journal of research - Granthaalayah, Social Issues and Environmental Problems: September, 1-7
3. L.T.Ikromov, T.Mirxaitov, M.A.Tojiev, Z.A.Yuldashev (2021). Toksikologik kimyo. Toshkent “EFFECT-D” 270-275.
4. Sabine Martin. (2009). Human Health Effects of Heavy Metals. Center for Hazardous Substance Research. Kansas State University Issue.
5. Chakraborty S, Dutta AR, Sural S, Gupta D, Sen S. Ailing bones and failing kidneys: a case of chronic cadmium toxicity. *Ann Clin Biochem.* 2013.
6. Albretsen J. The toxicity of iron, an essential element; Veterinary medicine; 2006.